

JAMIYATNING MA'NAVIY QADRIYATLARINI SHAKLLANISHIDA TELEVIDENIYEDA ADABIY-BADIIY KO'RSATUVLARNING AHAMIYATI

Sobitjonova Kamola

“O‘zbekiston 24” kanalini jurnalisti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini shakllantrishda televideniya adabiy-badiiy ko'rsatuvlarining o'rni xususida so'z boradi. Xususan, ushbu ko'rsatuvni tayyorlashda tanlangan mavzu va jurnalist mahorati masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Mazkur maqola mavzusi yuzasidan xorij va mahaliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keltirilgan fikrlar umumlashtirilib mavjud muammo yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: TV, milliy qadriyatlarlar, OAV, adabiy-badiiy ko'rsatuvlar.

ABSTRACT

This article talks about the role of literary and artistic programs on television in shaping the moral values of society. In particular, the issues of journalistic skills and the topic chosen during the preparation of this show will be thoroughly analyzed. Regarding the topic of this article, the opinions presented in the scientific researches of foreign and local scientists are summarized and appropriate suggestions and recommendations are given regarding the existing problem.

Key words: TV, national values, mass media, literary and artistic shows.

KIRISH

Istiqlol jamiyatimizda yangilanish davrini boshlab berdi. Bu davr kishilar, xususan, yoshlar ongini turli mafkuraviy andozalar ta'siridan ozod qilish, o'zlikka qaytish, iqtidori salohiyatni to'la namoyon etish imkoniyatini yaratdi. Mustaqillik tufayli o'zlikni anglash, xalq tafakkurini o'stirish, ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, ma'naviyatini yuksaltirish, axborot bilan ta'minlashda adabiyot, san'at va ma'naviy qadriyatlarining o'rni beqiyosdir. Hozir butun dunyoda ommaviy axborot vositalarining shu jumladan, televideniyaning ham keng rivojlanayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Televideniya bugungi kunga kelib ijtimoiy boshqaruvning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Televideniya keng omma ongiga, uning qarashlariga, ishonchlariga kuchli ta'sir etadigan ma'naviy vosita bo'lib qoldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Albatta, “ma’naviyat” tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalaydigan ko‘plab ta’riflarini keltirish mumkin. Umuman, o‘zida juda chuqur va keng qamrovli ma’no-mazmuni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi ma’rifatli inson o‘zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e’tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan xolda turlicha ta’rif va tavsiflar berishi tabiiy. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar hakidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ma’naviy meros, ma’naviy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklarni xalq ma’naviyatining tarkibiy qismi, deb tariflab chuqur fikr yuritganlar. “Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab- quvvatlashimiz lozim”[1].

Yuqorida keltirilgan bu so‘zlar ijodkorlar bilan birga bugun televideniya faoliyat olib borayotgan barcha badiiy ko‘rsatuv mualliflariga ham dasturulamal bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Shu bois bu soxadagi o‘tmishning badiiy tajribasini inkor etmagan xolda uni qayta idrok etish, tanqid obekti sifatida tadqiq qilish, saboq olish va ayni bir vaqtda xozirgi ijodiy jarayonni, ilim faoliyat bosqichlarini o‘rganish, xulosalar asosli bo‘lishini ta’minlash zarur. Bunday murakkab vazifani amalga oshirishda mualliflar ijodiy jarayon ishtirok etayotgan ijodkorlar bilan yaqindan munosabat o‘rnatishlari maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Xuddi shunday manaviy yetuk, ichki dunyosi, irodasi baquvvat, vijdoni uyg‘oq yoshlarni tarbiyalash uchun bugungi kunda telekanallarimiz orqali muntazam ravishda yoshlarga oid ko‘rsatuvlar efirga uzatib kelinmoqda. Bundan asosiy ko‘zlangan maqsad yoshlarning ma’naviy olamini yanada boytish ularni yetarlicha ma’naviy extiyojini qonduruvchi, ularga estetik zavq beruvchi ko‘rsatuvlar bilan ta’minlashdir. Bunday yoshlarga oid ko‘rsatuvlarga to‘xtaladigan bo‘lsak asosiy kuch albatta, badiiy ko‘rsatuvlar zimmasiga tushadi. Bugungi shiddatkor davrda badiiy ko‘rsatuvlarning ta’sirchanligini oshirishda televideniya faoliyat yuritayotgan mualliflar tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir telekanal qoshida “madaniy badiiy” muxarririyatlarining tashkil etilganligi, ushbu tahririyatlarning faoliyatida ikki asosiy yo‘nalish aniq vazifa qilib olingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Birinchi yo‘nalish zamonaviy san’at to‘g‘risidagi axborot taxlil ko‘rsatuvlarini shakillantirish

Ikkinchi yo‘nalish ma’naviy meros, o‘tmishdagi tarixiy siymolar, — anannaviy badiiy madaniyat haqida ko‘rsatuvlarning tayyorlanishi "Madaniy badiiy" tahririyatlarda yuqoridagi yo‘nalishlarning yaxlitligi o‘zbek madaniyati rivojlanishining o‘ziga xosligini aks ettiradi. Bu uziga xoslik tektonik ijtimoiy-siyosiy siljishlar davrida teran madaniy-tarixiy ildizlarga murojaat qilish uchun asosiy omil

bo'ldi, desak yangilishmaymiz. Mustaqillik yillarida milliy o'zlikni anglash zamonaviy ijodkorlar bilan birga yirik tarixiy shaxslar manaviy merosidan, an'anaviy san'atidan foydalanish davr talabi bilan ustunlik qilib kelmoqda.

Albatta, telekanal va muxarririyatlar soni ko'payganligi bilan badiiy ko'rsatuvlarga tanlanayotgan mavzularda o'xshashlik yaqqol ko'zga tashlanayotgan bo'lishi mumkin. Ammo, ularga yondashuv shakli o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda efirga uzatilayotgan badiiy ko'rsatuvlarning ta'sirchanligini oshirish uchun quydagi yondoshuvlarga e'tibor qaratilishi lozim deb xisoblayman:

- Avvalo muallifning adabiy jarayon va madaniy va ma'naviy qadryatlardan to'laqonli va ongli ravishda xabardor bo'lishi, ya'ni ma'naviy yetuklik;

- Muallifning boshqalar fikr va mulohazalarini tinglay bilishi va uni O'zining fantaziyasi bilan ijobiy muqoyasa bilishi;

- Kerakli mavzuni topa bilish;

- Yangicha uslubda yondoshuv;

- Faktlarning aniq va kerakli joyda bera bilishida;

- Intervyu va matn o'qilishidan ochiq kadrlar orqali tomoshabinga yetkazib bera bilish;

- Fonda ko'shimcha kadr va efektlardan foydalanish;

- Moxir rejissyorni topa bilish ham badiiy ko'rsatuvlarning ta'sirchanlik darajasini oshiradi. Muallif tasavvurida o'ylab topilgan ssenariyni jonlantirish, hayotiy voqelikni umumlashtirish, ularni tartibga solish, har xil shaklda tomoshabinga yetkazishda rejissyor maxorati ham katta rol o'ynaydi.

- Plastik yechimini topa bilish;

- Ovozlashtirish, ovoz va tasvirning uyg'unligi;

- Mazmun va shakl uyg'unligi

Albatta, bu yuqoridagi fikrlarning hammasi ham bugungi kun badiiy kursatuvlarida mavjud emas deya olmaymiz. Borlarida ham pisixologiyaga ta'sir jihati mukammal holda deya olmaymiz. Ammo tomoshabin talab va extiyojlarini to'loqonli ravishda qamrab olmagan bo'lsada, tomoshabinga ma'naviy ozuqa va estetik zavq beruvchi badiiy ko'rsatuvlarimiz mavjud.

Misol uchun efirga uzatilayotgan "Aziz siymolar" ko'rsatuvida shunchaki qaxramonlar xaqida berilgan intervyulardan quruq xolatda foydalanmasdan orqa fonga ko'rsatuv qaxramo tomonidan ijro etilgan, ularning ham yurtdoshlarimiz qalbiga chuqur kirib borganlari qisqa lavxalarda berib boriladi. Bunday mavzu va shakl jihatidan bir xil bo'lishiga qaramasdan ma'lum bir ijobiylikka erishayotgan badiiy ko'rsatuvlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ko'rsatuvga tanlangan qaxramonni yoshlar ongiga ta'sirchanligini oshirish, yoshlarga yoshlarcha munosabatda bo'lish uchun uning bolaligiga ko'proq e'tibor qaratib, ularning bolaligi qanchalik ayanchli

bo'lmashin ular taqdir qiyinchiliklariga bardosh berib, xayotdagi barcha mashaqqatlarni yengib utib, nafaqat o'z diyorida balkim dunyo miqyosida o'z o'rniga ega bo'lganliklaridir. Bunga esa, faqatgina mehnat va ilm olish oraqligina erishish mumkinligini isbotlaydigan qaxramonning bolaligini aks ettiruvchi lavxalarga keng imkoniyat yaratish. Albatta, bunday ijobiy xislatlar ta'siri seziladigan badiiy o'rsatuvlar inson mashaqqatli faoliyati orqali bir kun kelib rag'bat olishiga yoshlarni ishontiradi va manaviy yetuklikka chorlaydi.

“Bugun milliy kinematografiyamizga yangi falsafiy, poetik yo'nalishlar dadil kirib kelmoqda. Ikki-uch xujjatli va multiplikatsion Filmlarda namoyon bo'layotgan bu jixatlar, ayni chog'da kundand-kun kinoocherklarning zaif, bir-biriga o'xshash bo'lib borayotgan, rejissuraning qashshoqligi ko'zga tashlanib qolayotgani, bu haqda baxoli qudrat fikr yuritishga undadi”[2].

Uzoq o'tmishni ekranda qay tarzda yoritish kerak? O'tmish manzaralari muxrlanib qolgan biror buyum, yodgorlik saqlangan taqdirda biz tasavvur etishimiz zarur bo'lgan muhit qanday gavdalantiriladi? Yoki amaliy sanat ijodkorlarining ekrandagi tavsifi qanday bo'lishi kerak? Kulolning loy bilan ishlashi, naqsh ustasining mahobatli darvozani bezatishi, nigoxi o'zi tayyorlayotgan pichoqning tig'idan o'tkir ustaning mehnat jarayonini ko'rsatish bilan cheklanamizmi? Nazarimda, rejissyor va operator Boxodir Muzaffarov shoirona rux bilan sug'orilgan "Tushlar" asari bilan bu savollarga javob berdi. Yana bir yosh rejissyor, nozik didli operator Rifaat Ibragimov esa "Muqaddas Avesto" xujjatli asarida badiiy filimning shakl va uslublaridan foydalanib, eng muhimi, majoziy ifodalar ila ko'xna dunyoning falsafiy tushunchalari, hikoyatlari mohiyatini ochishga intildi va ko'p o'rinlarda maqsadga yetdi ham.

Badiiy “til” murakkabligi, kompozitsion qurilishi oldingi asarlarga o'xshamaydigan, so'z bilan emas, tasvir, montaj, ovoz vositalari bilan (suxandon matni bilan emas) serjilo, sermazmun badiiy tuqima yaratilgan bu kabi asarlar B.Muzaffarov va R.Ibragimovning kinometagrafik bisoti boyligidan darak beradi”[3].

Yuqorida o'zbek kinochiligi tarixi va bugungi kuninig yetuk namoyondasi, professor Hamidulla Akbarov tomonidan keltirilgan talab va takliflar garchand kinoga qo'yilgan talablar bo'lsada, ana usha talablarni biz bugungi kun badiiy ko'rsatuvlariga ham qo'yadigan bo'lsak, to'laqonli maqsadga muvofikdir va buning natijasida badiiy ko'rsatuvlarimizning ta'sirchanligida yana bir pog'ona o'sishga erishiladi. Badiiy ko'rsatuvlar qachon to'laqonli bo'ladi, badiiy ravishda inson pisixologiyasini qamrab olsagina. Pisixologiya bu ruxiy xolat demakdir. Demak, bugun biz, yoshlarning ruhiy holatini to'laqonli o'rganmas ekanmiz, biror samaraga erishishimiz dargumon. Badiiy ko'rsatuvlarimizning mazmun va shakli bugun shunchalik darajada yoshlarimiz ongiga singib qolganki, bu bir xillikda yoshlarimizda zerikish, beparvolik bilan ko'rish xolatini kuzatishimiz mumkin. Bugungi badiiy ko'rsatuvlarimizda temp bir xil

darajada deya olmaymiz. Shuning uchun ham ta'sirchanlik darajasini oshirish uchun yuqoridagi takliflardan kelib chiqib qancha ish qilinmasin, bu mehnatni ba'zi qo'l uchida qilingan ishlar tushirib yubormoqda. Aytaylik yuqorida ta'kidlab o'tkanimiz efirga uzatiladigan "Aziz siymolar" va "O'zbekiston" telekanalida muntazam bulmasada efirga uzatilib borilayotgan "Qalb gavhari" kabi badiiy ko'rsatuvlarida agar e'tibor berib kuzatadigan bo'lsak, har sonida tanlangan qaxramonlarga nisbatan turlicha yondoshuvni ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab to'g'ri ular haqidagi to'plangan faktlarning to'laqonli yoki kamligida deb olishimiz mumkin. Ammo, bu kabi holatlar ko'rsatuv tempiga xalal bermasligi kerak. Chunki muallifda bunday tusiqlarni tomoshabinga tushuntirib berish uchun imkoniyat mavjud emas, shuning uchun muallif bir xildagi qolipga tushib olmasdan har bir yangi tayyorlangan songa alohida mazmun va shakl uyg'unligini mujassamlashtirsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Chunki, badiiy ko'rsatuvlarning ta'sirchanlik darajasini belgilashda mazmun va shakl birligi ham muhim sanaladi. Agar ko'rsatuvda ularning qay biriningdir o'rni ortib, yo me'yoridan kam bo'ladigan bo'lsa, bu yuqoridagi badiiy ko'rsatuv ta'sirchanligini oshirish uchun qilingan ishlar samarasini tushirib yuborishi mumkin. Qisqa qilib aytganda, badiiy ko'rsatuvlardagi mazmun va shakl birligi yurtboshimiz takidlaganidek, "bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotidir". Hakikatda ham, eng shiddatli fazo lochinlari ham bir qanot bilan ucha olmagan kabi, badiiy ko'rsatuvda ham mavzu asosli, faktlar aniq, tasvirlar tiniq, mazmundor bo'lgani bilan ularni tomoshabinga yetkazib berishda shakl uyg'unligi bo'lmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Ammo ana o'sha yuqorida ta'kidlangan qushlar, ya'ni badiiy ko'rsatuvlarni parvozga erta tayyorgarliksiz qo'yib yuborilayotgani ham badiiy ko'rsatuvlarning ta'sirchanlik darajasini tushirib yubormoqda. Ba'zi bir badiiy ko'rsatuvlar ta'sirchanligini oshirishda rejissyor va muallif uyg'unligi yo'qligini kuzatamiz. Aynan mana shu holat ham yuqoridagi omilga sabab bo'lmoqda. Chunki, uning ssenariysi yozilishi ma'lum bir uzilishlar (muallifning jarayonga aralashuvida) bo'lganligi sababli dastlabki sonlaridayoq, o'z shaklini topolmadi. Ya'niki, mazmun va shakl uyg'unligiga ega bo'la olmaydi. Musiqiy jixatlarini to'laqonli ochib berolmagan adabiyotdan, tarixdan, ma'naviy qadryatlarimizdan yaxshi habardor bo'lgan bo'lishi zarur, deb yuqorida badiiy ko'rsatuvlar tasirchanligini oshirishda asosiy talabni muallifga qo'ygan edik. Tarozida muvozanat qachon bir xil bo'ladi? Qachonki, uning ikki pallasidagi og'irlik bir xil bo'lganda. Xuddi shunday, badiiy ko'rsatuvlarni taroziga solib darajasini o'lchaydigan bo'lsak, uning bir pallasini muallif ikkinchisini esa rejissyor tashkil etadi. Muallif kabi rejissyor ham dunyoqarashi yaxshi shakllangan ijodkor shaxs bo'lishi. kerak.

Badiiy ko'rsatuv ta'sirchanligini oshirishda plastik yechimning hamda ovozlashtirish asosiy masala sanaladi. "Nega ko'rsatuvlar bir- biriga o'xshash, bir qolipdan chiqqanday takrorlanadi, chunki har bir kursatuvning o'z plastik yechimi topilmaganidan, uning o'ziga xos obrazlilik talqinini yetishmaganidan rejissura nuqsonlarini ko'rish mumkin. Ko'rsatuvlarning ruxiy konsepsiyasi, marom tuzilishi rejissyuraning asosiy negizlaridan hisoblanadi. Ko'pincha voqealarning har xil maromda kechishini, uzuq-yuluq lavhalarda ko'rish mumkin. Maqom, sur'at, ruxiy yo'nalish, ekran obrazliliigi rejissyor mahoratining asosiy omilidir. Bu omillarsiz rejissyor qancha urinmasin ko'rsatuv jozibali, qiziqarli chiqmaydi"[4].

O'zbekiston madaniy hayotida yoshlar ma'naviy olamini rivojlantirishda yangicha uslublarda ta'sirchanlik darajasiga ega bo'lgan badiiy ko'rsatuvlar tayyorlash uchun xilma-xil madaniy mavzular mavjud. Shunday ekan, bugungi kun televideniye fidoyilaridan bu mavzularni kengroq jabhada to'laqonli qamrab olish ularni yoshlar auditoriyasiga yetkazishda, har qanday ijobiy taraqqiyot yutuqlaridan oqilona foydalana bilish, ko'rsatuvlarni ta'sirchanlik darajasini oshirish uchun nafaqat muallif va rejissyor ma'naviy dunyoqarashi keng bo'lishi balkim, ko'rsatuvni tayyorlash jarayonida ishtirok etayotgan barcha hodimlardan sidqidildan yondashuv talab etiladi. Yillar davomida shakllangan yoshlarning ma'naviy-badiiy dunyo qarashiga arzimas bir xato bilan salbiy ta'sir etib quyish mumkin. Muallif bunday ko'ngilsizliklarning oldini olish uchun doimiy ravishda ko'rsatuvlarini qaysi tomoshabin auditoriyasiga yo'naltirilyapti, ta'sir doirasi qanday bo'lishi mumkin, aks-sadosi bormi, ko'rsatuvning umri uzoqmi, tomoshabinning e'tibori unga yetarli darajada bo'lyaptimi, degan savollarni o'z oldiga ko'yib doimiy faoliyati davomida tahlil kilib borishi zarur. Muallifga tomoshabin e'tiborining yetarli darajada ekanini tahririyatga kelayotgan xatlar natijasida ham bilib olsa bo'ladi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "yer yuzida qancha inson, qancha takdir bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o'zligini, insonning qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu xaqda o'ylamasdan yashashni tasavvur qilish qiyin"[5].

Insoniyat tarixi ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Qisqa qilib aytganda, badiiy ko'rsatuvlar ta'sirchanligini oshirishda yuqorida sanab o'tilgan bunday talab va takliflarga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, o'ylaymanki, ijobiy natijalarga erishish mumkin va shundagina mazmun va shakl uyg'unligiga ega bo'lgan har bir yoshni kitob o'qishga, ilm olib, izlanishga, tarixiy o'tmishimizga

yuksak e'tibor bilan qarashga va madaniyatimizni qadrlashga undovchi, yuksak did bilan telvideniye kuzatib boruvchi yoshlar avditoryasiga ega bulishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar xaqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Uza.uz
2. Ortiqova.Yu Interaktiv jurnalistika. –T.; “Mumtoz so‘z”, 2011.
3. Akbarov X. Kino san'ati tarixi T.: Toshkent islom universiteti 2005, — 115 6
4. M.Muxammedov, F.Fayziyeva, V.Ablyayeva. Televideniye asoslari. T.: Voris-nashryoti 2009, — 51 6
5. Karimov I. A.. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat 2015, —29 6